

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|  |     |
|--|-----|
| <b>A.A.Каримов</b><br>Философия калама –рациональная основа средневекового исламского<br>мировоззрения.....  | 203 |
| <b>D.E.Normatova</b><br>Islom islohchiligi (modernizm): diniy-falsafiy va siyosiy jihatlar.....  | 210 |
| <b>B.E.Xusanov</b><br>Estetik tarbiya mohiyatining falsafiy tahlili.....   | 215 |
| <b>N.M.Axmadiyev</b><br>Yoshlarning axloqiy, ma’rifiy, madaniy tafakkurini yuksaltirishda keksa avlod tajribasidan<br>foydalanishning ahamiyati..... | 220 |
| <b>N.N.Teshayev</b><br>Fuqarolik jamiyati rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillari .....   | 223 |
| <b>K.G’.Kamolova</b><br>Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida falsafaning o’rni .....   | 227 |
| <b>M.M.Qaxxorova, B.Farfiev</b><br>Oila instituti mustahkamligining ijtimoiy-madaniy asoslari.....   | 232 |
| <b>K.U.Sharipova</b><br>Jamiyatda gender tenglikning shakllanish jarayoni.....   | 240 |
| <b>S.A.Xayrullayev</b><br>Jamiyat barqarorligida konsolidatsiya jarayonining konseptual asoslari.....  | 244 |
| <b>O’.X.Rajabov</b><br>Maslahat – konsensusning sinergetik omili .....   | 248 |
| <b>Sh.T.Abbosova</b><br>Milliy g’oya –insoniyatni barqaror taraqqiyot sari yetaklovchi kuch .....  | 251 |

---

SIYOSAT

|   |     |
|---|-----|
| <b>K.X.Avazov</b><br>Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining<br>mazmun-mohiyati.....               | 254 |
| <b>A.A.Abdilxamedov</b><br>Huquqbuzarlik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyati va xususiyati.....                            | 261 |
| <b>B.Y.Paluaniyazov</b><br>Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligiga ta’sir etuvchi tahdidlarning namoyon bo’lish<br>xususiyatlari..... | 265 |
| <b>U.M.Kuranov</b><br>Globallashuv sharoitida missionerlikka qarshi kurashning ma’naviy – ma’rifiy ahamiyati .....                    | 270 |

---

ТАРИХ

|  |     |
|--|-----|
| <b>Ma Jian, Vang Jianxin, M.Xasanov, Chen Aidong, Chjou Xinying, A.E.Berdimurodov, K.D.Arziyev</b><br>O’zbekistonning Samarqand vodiysi janubiy tomonidagi 2014-yilgi arxeologik dala qidiruv<br>ishlari hisoboti..... | 275 |
| <b>M.X.Исамиддинов</b><br>Оборонительные стены Афрасиаба и основные этапы его развития.....  | 309 |
| <b>X.Raxmatillayev</b><br>Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidagi etnik jarayonlar .....  | 314 |
| <b>F.X.Utayeva, P.Q.Sharipova, F.G’.Rahmatova</b><br>Mustaqillik yillarida Buxoro to’qimachilik sanoatida modernizatsiyalashuv jarayonlari .....   | 318 |
| <b>N.S.Abdullayeva</b><br>Rossiya muzeylarida saqlanayotgan O’zbekiston madaniy merosi namunalari.....   | 324 |
| <b>S.B.Xakimova</b><br>“Xulosat ul-ahvol” asari xususida.....  | 329 |
| <b>Ш.Т.Темиров</b><br>Мухаммад Сиддик Хашмат, сын Эмира Музаффар (1864-1932) – жизнь и научное<br>наследие .....   | 332 |

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR TIZIMIDA FALSAFANING O'RNI

## РОЛЬ ФИЛОСОФИИ В СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНЫХ И ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## THE ROLE OF PHILOSOPHY IN THE SYSTEM OF SOCIAL SCIENCES AND HUMANITIES

Kamolova Kimyoxon G'ulomjonovna<sup>1</sup><sup>1</sup>Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi,  
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada hozirgi davrda fanlar tasnifi, ijtimoiy fanlar, ularning kelib chiqish tarixi, bugungi kunda ijtimoiy fanlarga bo'lgan munosabat, ijtimoiy fanlar tizimida falsafaning o'rni va barkamol yoshlar tarbiyasiga ta'siri haqida so'z yuritilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье рассматривается классификация наук в современную эпоху, общественные науки, история их возникновения, отношение к общественным наукам сегодня, роль философии в системе общественных наук и ее влияние на воспитание гармонично развитой молодежи.*

**Abstract**

*This article examines the classification of sciences in the modern era, social sciences, the history of their origin, the attitude to social sciences today, the role of philosophy in the system of social sciences and its impact on the upbringing of harmoniously developed youth.*

**Kalit so'zlar:** Fan, falsafa, dunyoqarash, inson, olam, jamiyat, rivojlanish, barkamollik, ta'lim tizimi, ijod, tafakkur.

**Ключевые слова:** наука, философия, мировоззрение, Человек, Вселенная, Общество, Развитие, совершенство, система образования, креативность, мышление.

**Key words:** science, philosophy, worldview, man, universe, society, development, perfection, education system, creativity, thinking.

**KIRISH**

Dunyoda hech qachon bir xil tong otgan emas". Mazkur ibora ming yillar davomida barchani lol qoldirib kelmoqda. Haqiqatan ham, tonglar bir-biriga o'xshaydi, lekin har kun birona o'zgarish, birona yangilik yoki biron joydagi mojaro yoki ko'ngilsizlikni eshitish bilan kutib olamiz. Demak, bu iboradan insoniyat, butun koinot, tabiat va bashariyat doimiy o'zgarishda, yangilanishda degan ma'noni anglab olsak bo'ladi. "Bu yorug' olamga kelgan har bir odamzot avlodi turli o'zgarish va yangilanishlar sari intilaveradi", – degan edi Prezident Sh.M.Mirziyoyev.

Azaldan insoniyat koinotdagi, tabiat va bashariyatdagi o'zgarishlarga hamisha qiziqib kelgan. Har bir bo'ladigan o'zgarish va yangilanishning sir-asrorini bilishga intilib, o'zlarining ehtiyojlarini qondirishga, manfaatlariga xizmat qildirishga harakat qilishgan. Bu esa ilm-fan kurtaklarining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Dastlabki ilmiy dunyoqarash sifatida falsafa paydo bo'ldi. Keyinchalik bu fanlarning shakllanishi va rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qildi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Falsafa insonning olamga munosabatini ifodalaydigan nazariy bilimlar tizimi bo'lib, borliqning mohiyati va hayotning mazmuni, olamni bilish, taraqqiyot va o'zgarish, hayotning ma'nosi kabi turli xil masalalar bilan shug'ullangani uchun ham qiziqarli. Shuning uchun ham falsafa nafaqat dars jarayonida, balki darsdan tashqarida ham insonlarning diqqatini o'ziga torta oladi. Buni buyuk faylasuf Arastu falsafani "barcha mavjudotning ibtidosi va sabablari to'g'risidagi fan", – deya ta'kidlagan bo'lsa, alloma Abu Ali ibn Sino "mutlaq borliq to'g'risidagi oliy fan", – deya ta'rifladi.

G'arb ta'limotida T.Gobbs "to'g'ri fikrlash orqali erishilgan bilim", G.V.Gegel esa "fanlarni ko'rib muhokama qiluvchi", – degan tushunchalarni berishdi.

Sharqda Abu Nasr Farobiy, Abu ali ibn Sino, al Beruniy, Ibn Rushd, G'azzoliy kabi allomalar shug'ullanishgan.

O'zbekistonda falsafa fani bilan shug'ullangan faylasuf olimlar sifatida Jondor Tulenov, Said Shermuhammadov, Ibrohim Mo'minov, Qiyomiddin Nazarov, Ismol Saifnazarov, Said Mamashokirov, Nigina Shermuhammadova, Dilbar Fayzixodjayeva va boshqa bir qancha olimlarni ko'rsatish mumkin. Ular o'z tadqiqotlarida falsafa fanining mohiyati, uning ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rni haqida qimmatli fikrlarini bildirishgan. Ushbu maqolada ularning ilmiy asarlaridan foydalanildi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Falsafa dastlab, borliqning mohiyatini o'rganishga va tushunishga harakat qilishi bilan birgalikda, olamda insonning mavjudligi va o'rni, olam va odam o'rtasidagi munosabat haqida bahs yurituvchi soha edi. Keyinchalik u ko'plab sohalarga: gnoseologiya, antropologiya, metafizika, mantiq, siyosat, epistemologiya, etika, estetika va til falsafasi, tarix, ong va din falsafasi kabi sohalarda o'zini namoyon qildi.

Falsafaning ahamiyatli tomoni shundaki, u aqlga asoslanadi; mantiqiy mulohazalardan foydalanadi. Har qanday inson atrofida ro'y berayotgan hodisalarga savol nazari bilan qaraydi, o'z dunyoqarashi bilan javob izlashga harakat qiladi. Qandaydir ma'no olishga oshiqadi. Falsafa savollarning ham subyektiv, ham obyektiv turlarini o'z ichiga oladi. Bundan shuni anglash mumkinki, javoblarni topish bilan bir qatorda, yana savollar tug'ilaveradi. Javoblarni topmasdan oldin savol va jarayonlar kelib chiqaveradi, voqea-hodisalarni fikrda umumlashtirib, o'zaro bog'liklikda o'rganib, mohiyatini chuqurroq va to'laroq bilishga qiziqib borilaveradi. Demak, falsafa asosan fikrlash va bilim yaratish bilan bog'liq bo'ladi. "Falsafaning foydasi shundaki, u har qanday odam bilan so'zlasha olish imkonini beradi", – degan edi yunon faylasufi Aristipp.

Xo'sh, fan nima? Uning falsafa bilan qanday aloqasi bor? Fan taraqqiyotida falsafaning o'rni qanchalik ahamiyat kasb etgan?

Ma'lumki, "Fan – dunyo haqidagi bilimlar sistemasi, ijtimoiy ong shakllaridan biri. U yangi bilimlarni egallash bilan bog'liq faoliyatni ham, bu faoliyatning mahsuli – olamning ilmiy manzarasi asosini tashkil etuvchi bilimlarni ham o'z ichiga oladi, inson bilimlarining ayrim sohaslarini ifodalaydi".

Pozitivizm namoyondasi ingliz faylasufi G.Spenser (1820-1903) o'zining "Fanning paydo bo'lishi" asarida "fan jamiyat bilan bir vaqtda paydo bo'lgan" degan fikrni inkor qiladi hamda "bilimlar faqatgina tajribalarning kengayishi bilan bog'liq, demak fan ham qandaydir ilmiy g'oya va muammolarning paydo bo'lishi bilan shakllana boshlagan", – deydi.

Faylasuf olimi N.Shermuhamedova "Falsafa va fan metodologiyasi" darsligida fan tushunchasini ilmiy jihatdan tushuntirib berishga harakat qilgan: "Fan olam haqidagi bilimlar tizimi(olam, jamiyat, inson); fan yangi bilimlarni egallashdagi inson faoliyati; fan jamiyat, davlatni tashkil qilish shakl(institut)laridan biri". Demak, fan olam, inson, jamiyat haqidagi bilimlar tizimidan iborat. Inson yangiliklarni, bilimlarni egallashi, nazariyalarini yaratishi, ilm bilan bog'liq faoliyatni yuritishi jarayonida fanga o'z hissasini qo'shadi.

Ko'pgina mutafakkir olimlar fanning ilk kurtaklari kishilik jamiyatining paydo bo'lishi bilan bog'liq holda maydonga kelganligini ta'kidlashadi. Bizga ma'lumki dunyoqarashning ilk ko'rinishlaridan biri mifologik dunyoqarash edi. Mifologiya qadimgi Sharq va Yunonistonda paydo bo'la boshlagan va fanga o'tish bo'sag'asida ma'lum bosqich vazifasini bajargan. Sekin-asta mifologiya o'z o'rnini naturfalsafaga bo'shatib beradi. Keyinchalik buyuk faylasuflar Zenon, Demokrit, Aristotel, Yevklid, Arximed, Ptolemey, Diogen, Pirron, Epikur, Syan Szi va boshqa kadimgi zamon mutafakkirlari tabiat, jamiyat va inson, bilim, tafakkur va boshqalarning mazmun-mohiyatini fan tilida tushuntirib berishga harakat qila boshladilar.

Sharq falsafasi haqida gapirganda esa yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar dunyo renessansiga, ilm-fan olamiga o'zlarining hissalarini qo'shgan, kashfiyotlar olamini yaratib ketgan zotlarni faxr bilan tilga olamiz. "Biz qanday buyuk va shonli o'tmishimiz, qanday ulug' ajdodlarimiz borligini yaxshi bilamiz va bu bilan hamisha faxrlanamiz. Misol uchun, bironta jangda yengilmagan buyuk sarkarda Sohibqiron Amir Temurni olamizmi, algebra faniga asos solgan Al-Xorazmiyni olamizmi, Kolumbdan 500 yil oldin Amerikani kashf etgan Beruniy bobomizni olamizmi, o'rta asrlarda tibbiyot fanining poydevorini yaratgan Ibn Sinoni olamizmi, astronomiya sohasida beqiyos kashfiyotlar qilgan Mirzo Ulug'bekni olamizmi – jahon sivilizatsiyasi va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan bunday ulug' ajdodlarimizning har biri haqida soatlab gapirishimiz mumkin".

Misol uchun, G'arb va Sharq mamlakatlarida Alfraganus nomi bilan shuhrat qozongan olim Abul Abbos ibn Kasir al-Farg'oniyl falakiyot ilmiga asos soldi. U koinot ilmi bilan shug'ullanib, koinotda yulduzlarning joylashishi, ularning sirlari hamda harakat qilish qonuniyatlariga oid nazariyalarini yaratdi. Ahmad Farg'oniyl tinimsiz samarali ilmiy mehnati va faoliyati tufayli buyuk falakiyotshunos sifatida ilmi riyoziyot va jo'g'rofiya fanlarining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Uning asarlari lotin tili orqali butun Ovro'paga tarqaldi hamda o'zidan keyingi dunyo olimlariga qo'llanma sifatida xizmat qildi va xizmat qilib kelmoqda.

Yana bir buyuk faylasuf Muhammad al Xorazmiy tenglamalar haqidagi algebra va algoritmlarni yaratdi, astronomiya sohasidagi bilimlarni algoritmik usulda ifodalab berdi, algebra faniga asos soldi. Abu Rayhon Beruniy geodeziya, mineralogiya, farmakognoziyani yaratdi. Abu Ali Ibn Sino tibbiyot ilmini asoschisi sifatida dunyoga tanildi. Xullas fanlarning rivojlanishiga g'arb va sharq olimlari, faylasuflari,

## FALSAFA

mutafakkirlari o'zlarining benazir hissalarini qo'shib, uning rivoji uchun harakat qilganlar. Ilm-fan ular hayotining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lgan.

Xo'sh, endi ijtimoiy fanlar bu borada nima deydi? Bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlarga ehtiyoj nega yuqori darajada? Ijtimoiy-gumanitar fanlarning bugungi kundagi ahvoli qanday?

Jahon taraqqiyoti, jumladan, Yangi O'zbekiston taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi zamonaviy yuqori malakali kadrlardir. Shubhasiz, bunday kadrlarni oliy ta'lim tizimi tayyorlaydi. Shuning uchun ham butun dunyoda taraqqiyotning tamal toshi bo'lgan, mamlakatni qudratli, buyuk davlatga aylantira oladigan ilm-fan, ta'lim va tarbiyaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yetuk kadrlar tayyorlashda ijtimoiy fanlarning roli katta. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev deyarli har bir nutqida yoshlar va kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratayotgani, ijtimoiy fanlarning o'rni beqiyos ekanini ta'kidlayotgani bejiz emas, deb o'ylaymiz. Davlatimiz rahbarining yaqinda nashr etilgan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida ham ijtimoiy fanlarni o'qitishni chuqurlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Zero, biz uchun bugungi sharoitda fuqarolik pozitsiyasiga ega, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qiladigan, mamlakatimiz hayotidagi o'zgarish va islohotlarda faol ishtirok etuvchi zamonaviy va keng dunyoqarashli yoshlar avlodini voyaga yetkazish nihoyatda muhim. Shunday kadrlarni tarbiyalamasak, yoshlarimiz biryuqlama shakllanadi. Yosh avlod ma'naviyatsiz bo'lsa, uning yaxshi zamonaviy mutaxassis, faol fuqaro bo'lib shakllanishi amri mahol bo'lib qoladi. 1971-yilda D.Bell: «Postindustrial jamiyat» konsepsiyasi nazariy bilimlarning markaziy rolini yangi texnologiya, iqtisodiy o'sish va jamiyatning yangi tabaqalanishi atrofida quriladigan o'q sifatida ta'kidlaydi».

Sovet davrida ham ijtimoiy fanlarni o'qitishga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, falsafa, tarix, huquq, siyosatshunoslik, etika, estetika kabi gumanitar fanlardan darslar o'tildi. Biroq, barcha ijtimoiy fanlar marksizm-leninizm g'oyalariga, kommunistik mafkuraga bo'ysundirildi va bu asossiz g'oyalar komil insonni tarbiyalamadi, balki kadrlarni boshi berk ko'chaga solib qo'ydi. Natijada jamiyat tanazzulga yuz tutdi. Davlat parokanda edi. Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimizda ijtimoiy fanlarni yangicha nuqta nazardan o'qitish yo'lga qo'yildi. Biroq 1990 yillarning o'rtalarida O'zbekistonda ijtimoiy fanlarga biryuqlama texnokratik yondashuv kuzatildi, bu fanlarga o'ziga xos «begona» fanlar sifatida qarashlar shakllana boshladi. Afsuski, uzluksiz ta'lim bosqichlarida, ayniqsa, oliy ta'lim tizimida ijtimoiy fanlar qancha va qaysi yo'nalishlarda, qanday shaklda, qanday mazmunda o'qitilishi haqida yagona tushuncha haligacha mavjud emas. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, ba'zi uzoqni o'ylamaydigan mulozimlarning "ijtimoiy fanlardan foyda yo'q" kabi noto'g'ri qarashlari natijasida bu fanlarning salmog'i va sifati pasayib ketdi. Bu sohada tez-tez o'tkazilayotgan «tajriba»lar, kimningdir bir fanni kiritishga subyektiv yondashuvi, boshqasini yo'qotish, kafedralar qo'shilishi va professor-o'qituvchilar, ijtimoiy fanlar va mutaxassislar, professor-o'qituvchilar sonining ko'payishi, holatlari mehnatga nisbatan doimiy skeptitsizm sohaga jiddiy zarar yetkazdi. Aynan shu oqimning ayrim vakillarida shunday: "Biz va bizning fanlarimiz kerak emasmi, bizga ham hech narsa kerak emas. Shunchaki topshiriqlarni bajarib, fanlarimizni o'qitib va darslarimizni o'z vaqtida o'tib yursak bo'ldi, degan tasavvur shakllanishiga sabab bo'lgan. Biroq ijtimoiy va gumanitar fanlar – tarix, falsafa, huquq, arxeologiya, sharqshunoslik, tilshunoslik, adabiyot, san'atshunoslik va boshqa fanlarda yuksak natijalarga erishildi.

Ijtimoiy fanlardagi bo'shliq natijasida global tahdid bo'lgan diniy aqidaparastlik va uning oqibatlaridan biri bo'lgan global terrorizm, jaholatga, nafratga asoslangan diniy oqimlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Balki ijtimoiy fanlarni qisqartirish orqali, ularni o'qitmasdan ham yetuk mutaxassislar tayyorlash mumkindir. Lekin millat uchun qayg'uradigan haqiqiy vatanparvarni, oilaparvar, yurtparvar, mehr oqibatli insonlarni tarbiyalash ijtimoiy fanlarni o'qitmasdan amalga oshirish ancha qiyin kechadi deb hisoblaymiz. Uchinchi Renessans davri haqida qancha gapirmaylik, uning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlar yordamisiz yoshlar ongiga singdirib bo'lmaydi. Ijtimoiy fanlar Uchinchi Renessans davrining boshlanishi va rivojlanishining «katalizatori»dir. Xalqni, millatni uyg'otadigan kuch aynan ijtimoiy va gumanitar fanlardir. Taniqli olim M.Sheler ta'kidlaganidek, "ta'lim "biror narsaga o'rgatish" emas, kasb-hunar, mutaxassislik, har qanday mahsuldorlik uchun, hatto undan ham ko'proq, ta'lim bunday tayyorlash uchun mavjud emas".

Bugun biz zamonaviy bilim va texnologiyalarni, iqtisodiyotni puxta egallagan avlodni tayyorlashimiz kerak. Bunday mutaxassislarni tayyorlashda tabiiy-texnika va maxsus fanlar ham asosiy omil bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. Biroq, xalq va jamiyat, millat va davlat manfaatlarini o'ylaydigan, o'zini yurt manfaati yo'lida ko'radigan, islohotlar va ijtimoiy hayotga daxldorligini his etuvchi, yetuk insonlarning yangi avlodini tarbiyalash uchun faqat shu fanlarning o'zi yetarli emas. Davlat va jamiyat manfaatlarini yo'lida halol mehnat qilgan, bu boradagi barcha ijtimoiy chaqiriq va murojaatlarga javob beradigan ajdodlarimiz avlodi ta'sirida tarbiyalanganmiz. Ularning rivojlanishida ijtimoiy fanlar tizimi

muhim rol o'ynaganini hammamiz bilamiz. Demak, ijtimoiy fanlarga e'tibor bermaslik natijasida dunyoqarashi bir yoqlama, faqat o'zi haqida o'ylaydigan, xalq, davlat va jamiyat to'g'risidagi yot g'oyaga ega bo'lgan yoshlar avlodi paydo bo'ldi, ya'ni chet eldagi "yo'qolgan avlod". Prezident Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" asarida bundan 60-70 yil avval Ikkinchi jahon urushidan keyingi qiyinchilik va moddiy taqchillik yillarida ishlab chiqilgan va asosan, ma'naviyat va gumanitar ta'limga pul sarflash zarur emas, deb hisoblangan va mutlaq g'oyasizlikka asoslangan ijtimoiy konsepsiyasi oqibatlarining qanday bo'lganligi hammamizga ma'lumligi haqida alohida eslatadi. Shuning uchun biz ijtimoiy fanlarni o'qitishga pul sarflashdan qo'rqmasligimiz kerak. Besh yildan so'ng, o'n yildan so'ng sarflangan mablag'lar e'tibordan chetda qolmaganiga guvoh bo'lamiz. Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur kabi mamlakatlar tajribasi ham ta'limni moliyalashtirish o'z samarasini berganini dunyoga ko'rsatdi. Ijtimoiy fanlarni o'rgatish uchun mablag'ni ayasak, eski uslubga qaytamiz. Hech qanday holatda bunga yo'l qo'yilmasligi kerak.

Biz yoshlarga o'rgatayotgan falsafa fanimiz ham ijtimoiy fanlarning asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Xo'sh, falsafa nima? Bugungi kunda falsafa yoshlarga nima uchun zarur? Uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini nimalarda ko'rish mumkin? Fan falsafaning bir qismi hisoblanadi. To'g'ri falsafa va fan o'rtasida o'xshashlik bilan birga farqlar mavjud. Ko'pchilik odamlar, hatto ayrim tadqiqotchilar ham fan va falsafa bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan tushunchalar deb faraz qilishadi, ammo ikkala mavzu ham bir-biriga qarama-qarshi, adovat ma'nosida emas, balki ijobiy munosabatlarga ega. Ma'lumki, fan tizim sifatida quyidagi guruhlariga bo'linadi: tabiiy fanlar, gumanitar fanlar, texnika fanlari va ijtimoiy fanlar. Falsafa mana shu fanlarga asos sifatida dunyoqarash, bilim va ilmiy faoliyat yuritish hamda ijodning ahamiyati haqida tushuncha beradi. Shuning uchun ham falsafa "Falsafa fanlar ichidagi fandir, tafakkur madaniyatidir", deb ham aytiladi. Fanda inson tabiiy qiziquvchanlik, intellektini ishga solgan holda, yangi bilimga intiladi. Bunda ma'lum soha vakillari aniq yo'nalish bo'yicha ish olib borishadi. Falsafada esa olam haqidagi bilimlarini yangilash, o'z ruhiyatini bilimlarni egallash orqali qoniqtirish orqali bilimga intiladi, fikr yuritish orqali bilimga erishishga harakat qiladi. Demak, ikkalasining ham maqsadi bitta, "yangi bilimlarni egallash va yuksaklikka erishish", har qanday holatda ham vaziyatlarni tushuntirish va javob topishga harakat qiladi.

#### XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak, falsafa va fan ikkalasi ham jamiyat hayoti uchun zarur bo'lgan tadqiqot manbai hisoblanadi. Ikkalasi ham o'z sohalari va yo'nalishlari mavjud bo'lib, ular olam, unda odamning o'rnini, odamning tabiatga, jamiyatga munosabati va boshqa savollarga javob berish maqsadida tadqiqot olib boradi, **bu birinchidan**.

**Ikkinchidan**, falsafa voqea-hodisaga munosabatini mantiqiy dalillar, qonunlarga asoslanib tushuntirishga harakat qilsa, fan kuzatishlar, tajriba natijalari, isbotlangan nazariyalarga asoslanib tushuntiradi. Fanda monizm g'oyasi birinchi o'rinda turadi. Fanda keltirilgan ishonchli dalillar prognoz qilish imkonini beradi.

**Uchinchidan**, ilm-fan ko'pincha tajriba tekshiruv, kuzatishni talab qilib, obyektivlikka, asoslanganlikka tayanib, universallikni da'vo qiladi, ratsionallikka erishishga harakat qiladi. Falsafa uchun esa kuzatish, tajriba qilish muhimmas. U kundalik va nazariy bilimlar asosida fikr yuritib, savollarga javob beradi. Falsafada fikrlar rang-barangligiga e'tibor qaratiladi. Berilayotgan fikrlarda esa qaysidir faylasuf yoki falsafiy maktabning fikrlariga tayaniladi. Faqatgina ikkalasi ham berilgan savollarga javoblarni oladi va ularni obyektiv ravishda to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini isbotlaydi.

**To'rtinchidan**, fan ham, falsafiy tafakkur ham, insonning o'z-o'zini anglashidan, olamni tushunish va idrok etishidan boshlanadi. Falsafa zamonaviy fanlarning yutuqlariga tayanadi, olamning ilmiy manzarasini yaratishga harakat qiladi.

**Beshinchidan**, falsafiy g'oyalar bitta faylasuf nomi bilan bog'lanadi, uning g'oyasi boshqa faylasuf tomonidan qo'llab-quvvatlanishi yoki rad qilinishi mumkin bo'ladi. Fandagi nazariya va g'oyalar esa bir kishi tomonidan aytilishi mumkin, ammo u jamoaning qo'llab-quvvatlashi, qabul qilishi, bir so'z bilan aytganda jamoa bilan ishlash natijasida yuzaga keladi.

Bugungi kun yoshlarida fan va falsafaning kelib chiqishi, evolyutsiyasi, bugungi holati, insoniyat hayotida tutgan o'rnini to'g'risida chuqur ilmiy tushunchalar hosil qilish, shuningdek, ularda turli xil mifologik, diniy, ilmiy-falsafiy oqimlarning kelib chiqishi, fan rivoji va yo'nalishlari to'g'risida ilmiy xulosalar chiqara oladigan ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, falsafiy ta'limotlarni asosli tahlil qilishga imkon beradigan ilmiy dunyoqarashni shakllantirish dolzarb masalalardandir. Bu maqsadga erishishda o'tmishdagi mutafakkirlarning asarlari, turli tarixiy manbalar zaruriy nazariy asos bo'lib xizmat qilishi kerak. Falsafa ham fan ham inson ma'naviy hayoti va bilimlarining asosini tashkil qilar ekan, hozirgi vaziyatda ularga ko'proq e'tiborni qaratish, ayniqsa ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida milliy, umuminsoniy, falsafiy, diniy huquqiy, siyosiy, sotsiologik, psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy

## FALSAFA

jihatlari, uning xalq odatlari, an'analari va qadriyatlarini shakllantirish hamda boyitishdagi o'rni va ahamiyati bo'yicha targ'ibot yo'nalishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Prezidentimiz ham o'z kitobida bugungi yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda ijtimoiy fanlarning o'rnini ko'rsatadi. Bugun Yangi O'zbekistonimizga nafaqat yaxshi mutaxassislar, balki o'z tarixi, milliy an'analari yaxshi biladigan yuksak ma'lumotli, yuksak madaniyatli fuqarolar ham zarur. Bizning fikrimizcha, Prezidentimizning mazkur tavsiya va talabi oliy o'quv yurtlarida ijtimoiy fanlarni o'qitishni jiddiy qayta ko'rib chiqish, ijtimoiy fanlarni o'qitishni boyitish uchun yetarli asos, deb hisoblaymiz. Darhaqiqat, ijtimoiy soha boshqa texno-iqtisodiy, savdo, moliyaviy va iqtisodiy tarmoqlar kabi katta to'g'ridan-to'g'ri daromad keltirmaydi. Ammo jamiyatning ma'naviy bo'shligi tufayli yuzaga keladigan oqibatlar, halokatlar tuzatib bo'lmas ofatlarga olib kelishi mumkinligini bugun hayotning o'zi isbotlab turibdi.

Shu bois ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ijtimoiy fanlarni qanday taqsimlash, o'quv va amaliy soatlarni qanday tashkil etish bo'yicha maxsus konsepsiya ishlab chiqish zarurati tug'ildi. Binobarin, "Uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni o'qitishning tartibi va tamoyillari to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Shu munosabat bilan 2022-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim va tarbiyasini insonparvarlashtirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shundagina biz jamiyatning barcha sohalarida har tomonlama bilimga keng dunyoqarashga ega zamonaviy kadrlar tayyorlay olamiz. Darhaqiqat, biz buyuk niyatlar bilan poydevor qo'yayotgan Yangi Renessans davri yurtimizda mana shunday ulkan boylklarni yaratish, xalqimiz turmushini yaxshilash, kelajak avlodlarga munosib meros qoldirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ijtimoiy fanlarni bog'cha, boshlang'ich sinflardan boshlab axloq va ma'naviyatga oid asosiy tushuncha va talablarni o'rgatish shaklida olib borish, oliy ta'lim muassasalarida "Ijtimoiy fanlarni o'qitish konsepsiyasi"ni ishlab chiqish, Yangi O'zbekiston – obod, demokratik davlat qurish, Uchinchi Renessans davri professor-o'qituvchilari, ijodkor ziyolilar eng katta kuch ekanligi, ularning mas'uliyatli faoliyatini qo'llab-quvvatlab, ularga munosib mehnat va turmush sharoiti yaratilishi o'ta muhimligini alohida qayd etish zarur.

Zero, bu fanlar Yangi O'zbekistonning kelajak avlodida yangi dunyoqarashni, faol fuqaroni shakllantiradi. Nodavlat oliy o'quv yurtlarida esa ijtimoiy fanlarni o'qitish to'liq davlat buyurtmasi tarzida bo'lishi va shu orqali yoshlarimizni "ommaviy madaniyat" mafkurasidan himoya qilishimiz mumkinligini unutmashimiz kerak.

Alohida ta'kidlash joizki, oliy o'quv yurtlarida ijtimoiy fanlar, jumladan, falsafani o'qitishni kuchaytirish - milliy madaniyat, an'analarni asrab-avaylash, yoshlarni o'z Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, zamonaviy voqelikni munosib idrok etishga yordam beradigan falsafiy tafakkurni shakllantirish, shuningdek ekstremizm, korrupsiya va boshqa zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashda yoshlarda ma'naviy immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. 2021y. 5-bet
2. Sh.M.Mirziyoyev. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. 2017 yil 4 avgust.
3. N.Shermuhamedova. Falsafa va fan metodologiyasi. Darslik. Toshkent. 2008. 25-B.
4. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-f/fan-uz/>